



60

НИКОЛОВИЧ РИЗУЛОВА ЗИЗУЛИНА
НИКОЛОВА РИЗУЛОВА ЗИЗУЛИНА

УНИВЕРСИТЕТ МЕДИЦИНСКИ
УНИВЕРСИТЕТ МЕДИЦИНСКИ

ИДИТИВИФИКАЦИОННИ
ИДИТИВИФИКАЦИОННИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
ЎЗБЕК ТИЛИ, АДАБИЁТИ ВА ФОЛЬКЛОРИ ИНСТИТУТИ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ҚЎҚОН ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

ФИЛОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

ACTUAL PROBLEMS OF PHILOLOGY

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЛОЛОГИИ

Филология фанлари доктори, профессор Шоира Нематовна
Ахмедова таваллудининг 60 йиллиги муносабати билан
ўтказилган халқаро илмий конференция материаллари

*Materials of the International scientific conference Organized on
the occasion of the 60th anniversary of Doctor of Philology, Professor
Shoira Nematovna Ahmedova*

Материалы Международная научная конференция органи-
зована к 60-летию со дня рождения ученой, профессора Бухар-
ского государственного университета Ахмедовой Шоиры

2020 йил 24-26 декабрь. Ўзбекистон
December 24-26, 2020, Uzbekistan
24-26 декабрь, 2020 г. Узбекистан

«ТУРОН-ИҚБОЛ» НАШРИЁТИ
ТОШКЕНТ - 2021

УЎК 821.512.133.3
ББК 84(075)
Ф 30

Филологиянинг долзарб масалалари [Матн] / Нашрга тайёрловчилар
М. Ҳакимов ва бошқ. – Тошкент: “Turon - iqbol”, нашриёти, 2020. – 464 бет.

*Тўпلامдан халқаро конференция материаллари ўрин олган. Мақолаларда
филологиянинг турли йўналишларига оид сўнги илмий кузатишлар
ёритилган бўлиб, соҳанинг барча мутахассисларига мўлжалланган.*

Тўплаб нашрга тайёрловчилар:

кич.и.х. М.Ҳакимов, таянч докторант Н.Қодирова

Таҳрир хайъати:

акад. Б.Назаров, ф.ф.д., проф. И.Ҳаққулов,
ф.ф.д., проф. Қ.Қаҳрамонов, ф.ф.д. С.Мелиев, ф.ф.д. С.Тўлаганова,
ф.ф.д. Д.Ражабов, ф.ф.д. Л.Шарипова, ф.ф.д. Ш.Давронова,
ф.ф.н. Э.Очилов, ф.ф.н. Г.Сатторова, ф.ф.н. З.Қобилова,
ф.ф.н. Х. Сафарова, ф.ф.н. Қ.Тўхсанов

Тақризчилар:

ф.ф.д. И.Ёқубов, ф.ф.д. Ш.Турдимов

*Илмий тўпلام ўзР ФА ўзбек тили, адабиёти ва фольклори
институту Илмий кенгаши қарори (2020 йил 15 декабрь, 7-сонли йўғилиш
баённомаси)га асосан нашрга тавсия этилган.*

ISBN: 978-9943-5122-5-2

© “TURON-IQBOL” нашриёти, 2021

CHO'LPON "SHOHNOMA"NING TURKCHA TARJIMASI" VA "UVAYSIY" MAQOLALARI

Anatatsiya: Maqolada Cho'lponning adabiy-tanqidiy merosi va ulug' adib shaxsiyatining turli qirralari, madaniy saviyasi, e'tiqodi va dunyo-qarashini o'rganish, ijtimoiy hayotning muhim jihatlariga uning munosabatini aniqlash, ijodiy biografiyasining ba'zi nuqtalarini yoritib berishga harakat qilingan. Shu maqsadda ijodkorning ba'zi maqolalari tahlilga tortilgan.

Анотация: В статье предпринята попытка изучить литературно-критическое наследие Чулпона и различные аспекты личности великого писателя, культурный уровень, верования и мировоззрение, определить его отношение к важным сторонам общественной жизни, выделить некоторые моменты его творческой биографии. Для этого анализируются некоторые авторские статьи.

Anatation: The article seeks to study the literary-critical heritage of Cholpon and various aspects of the great writer's personality, cultural level, beliefs and worldview, to determine his attitude to important aspects of social life, to highlight some points of his creative biography. . For this purpose, some of the author's articles are analyzed.

Kalit so'zlar: Tarjima, maqola, fors-tojik adabiyoti, Shohnoma, Firdavsiy, qo'lyozma, Qo'qon, Uvaysiy

Ключевые слова: перевод, статья, персидско-таджикская литература, Шахнаме, Фирдавси, рукопись, Коканд, Увайси.

Key words: Translation, article, Persian-Tajik literature, Shohnoma, Firdavsi, manuscript, Kokand, Uvaysi

Cho'lpon ham nazmda, ham nasrda birdek qalam tebratgan o'z davrining yirik adiblaridan hisoblanadi. Cho'lpon kuchli-kuchli tanqidiy, keskin fikrlarni, g'oyalarni ayta olgan o'ta adolatparvar inson. U nuktadon olim sifatida nafaqat yozuvchi yoki shoir, balki bilimdon adabiyotshunos sifatida ham faoliyat yuritgan. Surxondaryolik yosh cho'lponshunos N. Yo'ldoshev Cho'lpon hayoti va ijodiga doir bibliografiya e'lon qilib, shoirning 1914-1937-yillar mobaynida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalari hozircha 63 ta ekanligini qayd etadi.

Cho'lpon favqulotda iqtidor egasi. U o'z davrining hech qaysi masalasiga befarq qaramagan. Cho'lponning **"Shohnoma"ning turkcha tarjimasi** maqolasi "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 1925-yil 5-6-qo'shma sonida bosilgan. U paytda Cho'lpon 27 yoshda edi. Sarlavhaning o'zidanoq ko'rinib turibdiki, maqola tarjimaga bag'ishlangan.

Fors-tojik adabiyotining otasi bo'lgan ulug' Firdavsiy yagona asari ya'ni "Shohnoma"si bilan butun dunyoga tanildi. Ko'pgina Yevropa tillariga nazm va nasrda tarjima qilinib Firdavsiyning shuhratini ko'klarga ko'targan mana shu "Shohnoma"dir. Ammo bu buyuk asarning mukammal tarjimasi yo'qligi to'g'risida Cho'lpon shunday yozadi: "...taassuflar bo'lsinkin biz, shu choqqacha Firdavsiyning u ulug' asarini turk shevalarining hech bittasida-tugal va nazm bilan

tarjima qiling'on holda-ko'ra olmadiq". O'sha paytda 10-15 yillar ilgari Toshkent shahrida o'zbekcha nasrda bosilgan tarjimasi bor edi. Lekin u faqat moddiy manfaat yuzasidan tarjima qilingan. Bu tarjima haqida Cho'lpon: "Tosh bosmada bosilg'on u tarjima hali ham mehmonxonalarimizni obod qilib turadir" deydi.

O'zbek shevasi va boshqa turk shevalarida nazm bilan tugal tarjima qilingani bizga ma'lum emas. Faqat Ozarbayjon shevasida mashhur Sobir tomonidan tarjibanmay qolgan edi.

Cho'lpon nazarda tutgan "mashhur Sobir" tarjimasi haqida ma'lumotga ega emasmi. Ozarbayjon tiliga Rashid Afandizoda tomonidan 1906-yilda tarjima qilingan "Rustam va Suhrob" dostoni shu dostonning nazmiy tarjimasi esa 1908-yilda Abbos G'oirov tomonidan amalga oshiriladi va Tblisdagi "G'ayrat" bosmaxonasida chop etiladi. "Mulla Nasriddin" jurnalining avvalgi rassomi "Ro'tter" tomonidan bu tarjimaga ikkita surat ham chizdirib berilgan. Bu tarjima xususida Cho'lpon shunday yozadi: "O'sha vaqtlarda fors va rus adabiyotlaridan xabardor bir kishiga haligi tarjimani ko'rsatib fikrini so'raganimda – "bu tarjimadan ko'ra, rus shoiri Jukovskiy tomonidan qilingan tarjima yaxshiroq, lekin "Ro'tter" ning tortqon rasmi ularning ikkovidan ham yaxshiroq", degan edi".

Mashhur rus shoiri Jukovskiy "Rustam va Suhrob" dostonini nemis tilidan tarjima qilgan. Garchi tarjima vositachi til orqali amalga oshirilgan bo'lsa-da, rus kitobxonlari o'tgan asrning o'rtalaridayoq bu doston syujeti bilan tanishgan.

Shundan keyin Cho'lpon xususiy bir ish bilan Marg'ilon shahriga boradi va oddiy tasodif bilan "Shohnoma"ning nazmiy tarjimasiga duch keladi.

Tarjima qo'l yozma – eski nusxalardan. "Muhammadiya" kitobining tili-da.Boshdan oxirigacha nazm bilan yozilib, hikoyalarning sarlavhalari xuddi "Shohnoma"ning o'zidagi kabi – nasr bilan yozilgan. Tarjima tarjimonning o'z qo'li bilan yozilganmi yoki asl nusxasidan ko'chirilganmi – bu to'g'rida hech qanday ma'lumot yo'q. Faqat shunisi aniqki, tarjimaning shu nusxasi 2-3 kotibning qo'lidan chiqqan. Yarimlarigacha puxta va pishiq, lekin o'qilishi juda tushunarsiz xat bilan yozilgan. Qolgan yarmi ya'ni nazm qismi boshqa bir kotib tomonidan xomroq ko'chirilgan.Oxirida "Hikoya dar xotimai kitobi" sarlavhasi bilan Sulton Mahmud G'aznaviy to'g'risida bir hikoya boshlanadi. Bu hikoya tugallanmay qoladi va undan hech narsa tushunib bo'lmaydi. Ayniqsa, oxirgi misralari shosh-qaloqlik bilan yozilgan.

Endi tarjimaning qachon va kim tomonidan qilinganligiga kelsak. Bu haqida hech qayerda raqamlar bilan aniq ko'rsatilmagan. Lekin 906 – hijriyda Misrdagi Cherkas xonlaridan "G'uriy Qonsuxon" zamonida bo'lganligiga ishoratlar bor:

*To'qquz yuz olti yil hijratdan ey jon,
Erishmishdiki, G'uriy Sulton
"Jahon Sultoni G'uriy Qonsuxon,
zamoning ayini ichra o'ldi inson."*

Shavvol oyi – hijriy hisobidagi o'ninchi, ya'ni, Ramazoni sharifdan keying oy deyilganiga sabab mana bu misra:

*Nahoroyid shavvol avvalindan,
Muborak o'ldi bu fol avvalindan.*

Tarjimon "Cherkas xonlari"dan bir nechtasini bitta-bitta hikoya qilib beradi. Oxirida zolim bir xondan gap ochib, unga salbiy munosabat bildiradi. U xon "Malik Odil" degan kishi bo'lib, Jonpo'latni o'ldiradi. Xalq u xonning zulmidan ko'p Qonsuxon o'tirgan. Tarjimonga mana shu G'uriy Qonsuxon "Shohnoma"ni "turkcha qil" deb buyurgan.

"Cherkas xonlari" – mamluklar dinastiyasining sultonlari cherkaz sarbozlarining avlodlari sanaladi. Malik Odil, Jonpo'latlar shu sultonlardan bo'lsa kerak. Bu tarjimada tarjimon G'uriy Qonsuxonga madhiyalar yozadi. G'uriy Qonsuxonga saroy shoirlariga xos "laganbardorlik" bilan nasihat ham qiladi.

G'uriy Qonsuxon tarjimonga "Shohnoma"ning tarjimasini buyurganini quyidagicha tasvirlaydi:

"G'uriy Qonsuxon avval "Shohnoma"ni tarjima qil deb, o'z xazinasida saqlanib yotgan kamyob bir nusxasini qoldirib chiqib berganda, bizning mutarjim bir oz "noz" qilg'on. "Qo'limdan kelmaydir, falon" degan. So'ngra "Qolingdan kelgani qadar qil" deb qistag'ach "nochor – noiloj" qabul qilg'on".

Tarjima "Shohnoma"ning asosiy qismi "Omadani noma ba Sa'd Vaqqos" degan fasl bilan tugaydi. So'ng nasrda sulton Mahmud G'aznaviy bilan Firdavsiy o'rtasida bo'lib o'tgan bir voqea hikoya qilinadi. Bu hikoya ham ikki xil yozuvda yozilganligi borasida Cho'lpon shunday yozadi:

"Bu hikoya ham ikki xil qalam bilan yozilg'on. Oxirlarida xatlarini o'qush qiyinlashadir. U qiyin xatlar, bir xil eron yozma xati bilan usmonlicha yozmaning o'rtasida – mujmal bir xat. Eng oxirida yana boshqa bir qo'l bilan (so'ngroq qo'shulg'on bo'lsa kerak) xuddi yosh bolalarning chizib o'ynashlarig'a o'xshatilib mana bu narsa yozilg'on:

*Qanda voram sarvi sarafrozim vorkan,
Yo kima qul uloyim siz afandimvorkan".*

Bundan ko'rinib turibdiki, Cho'lpon davrida "Shohnoma"ning turkchada havas qilguli tarjimasi bo'lmagan. Ulkan shoir Tusli Abulqosimning buyuk "Shohnoma" asarini turk xalqi tushunib, sevib, his qilib o'qiy olmasligi Cho'lponni tashvishga slogan. Faqat buyuk mahorat bilan tarjima qilingan asarnigina xalq maroq bilan o'qishi mumkin. Buni yaxshi bilgan Cho'lpon yo'l-yo'lakay, oldi-qochdi yoki faqat moddiy maqsadda qilingan tarjimalarni keskin qoralagan va tanqid qilgan.

O'zbek adabiy tilini shakllantirish va rivojlantirishga katta hissa qo'shgan, o'zbek adabiyotini yangi janrlar bilan boyitgan, zamonaviy tarjima maktabiga asos solgan, haqiqat va hurlikni e'tiqodiga aylantirgan va shu bilan birga o'zbek, rus, turk, fors, arab tillarini yaxshi bilgan, Sharq va Yevropa madaniyatini chuqur o'zlashtirgan Cho'lponning yana bir maqolasi "Uvaysiy" deb nomlangan. Mazkur maqola "Yangi turmush" jurnalining 1936-yil 4-5-qo'shma sonida e'lon qilingan.

Klassik maqomlar orasida eng ko'p yoyilgani, shubhasiz, "Iroq" kuyidir. Uni Buxoroning shashmaqomchi hofizlari ko'p aytishar edi. Mulla To'ychi Toshmammedov hofiz, o'zbek qo'shiqchilik san'atining yirik namoyondasi, o'zbek xalq hofizi bu kuyini xalqqa tanitgan kishilardan edi. Bu haqida Cho'lpon shunday yozadi: "To'ychi aka va uning jo'ralari ham uni boshqacha qilib ishlab, omma orasiga yoydilar. U sahnanimizda eng avval "Halima" vositasi bilan jarangladi. "Halima"ning birinchi dastlabki variantida "Iroq" kuyi yo'q edi, keyincha piyesani bir qadar ishlashga to'g'ri kelgan vaqtda Halima (qiz)ning ariyasi bo'lib sahnaga chiqdi. Ko'pchilik yoqtirdi va u tom ma'nosi bilan grajdandlik qozondi".

Cho'lpon tilga olgan "Halima" – dramaturg G.Zafariyning (1889-1944) shu nomli dramasi. Ilk bor 1920-yilda sahnalashtirilgan bu asar 20-30-yillarda bir necha o'n marta lab o'ynalgan.

Aynan mana shu "Iroq" kuyini o'quvchi hofizlarimiz Uvaysiyning:

*"Zaboningni keturgil, ey shakarlab to'ti guftora,
Nechikkim marhamat bo'lsin necha mandek dilafgora"*

(Ey shakar labli to'ti, tilingni so'zga keltirgilli, menga o'xshagan qancha ko'ksi yaralilarga marhamat bo'lsin.) deb boshlanadigan mashhur g'azalini o'qib keladilar. Cho'lpon shunday yozadi:

"Ana shu g'azalni yozgan Uvaysiy Umarxon davrida yashagan ayol shoirlardan bo'lib, nomi Jahon otin edi. U "evaz" bahrlari bir g'azalining oxirida o'z taxallusi va ismini mana bunday qilib bildiradi:

*Yo'qotib o'zni fano martabasiga yeta ko'r,
Vaysiy nomim mening ul nomi Jahonimga evaz "*

Yuqorida Cho'lpon aytib o'tgan "Evaz" bahrlari jumlasida yangilishib ketgan, chamasi. To'g'risi, "evaz radifi" deb yozilishi kerak edi.

Jahon otin asli Marg'ilonlik bo'lgan. Umarxon o'rdasida xonning o'zi boshliq bir necha shoir bo'lganini va ularning tez-tez to'planib mushovara qilishlarini eshitgan Uvaysiy o'sha shoirlar majlisiga kirish havasiga tushadi. Uning saroyga qanday kirgani va qolib ketgani borasida Cho'lpon shunday yozadi:

"Qo'qonga bormoqchi bo'lib otasidan ijozat so'rganida otasi uning talabini qaytarmasa-da, qizning saroydagi shoirlar majlisiga kirishga yordam ko'rsatar degan umid bilan Qo'qondagi obro'li odamlardan bir do'stinig hovlisiga yuboradi. U odam, qizning shoira bo'lsa ham hali yosh ekanini ko'rib, iktilandi:

– Bu holingizga borib kirolmassiz. Birona qari xotin qiyofasida borib ko'rsangiz, – deydi.

Jahonoyi qari kampir kiyimlarini kiyib, eski paranni yopinib o'rdaga boradi. Uni kiritmaydilar. So'ngra u "Zaboningni" deya boshlangan g'azalidan ikki misra yozib majlisga kiritadi. Shundan so'ng uni shoirlar majlisiga kiritadilar. Faqat u yerda uning qari kampir emas, yosh bir juvon ekani bilingandan keyin, biror "fitna" chiqmasin deb bo'lsa kerak, uni darhol saroy ichkarisiga kiritib yuboradilar. Shu bo'yicha Jahonoyi Umarxon saroyida qolib ketadi va so'ngroq "Jahon otin" deb shuhrat chiqaradi".

Uvaysiy saroyda yashagan davrida Marg'ilonning Qalandarxona degan joyida bir uy soldirgan ekan. Uning "Karbalonoma"si, "Devon"i va Muhammadali xonga bag'ishlangan "Xitoy safari" nomli asarlari bor.

Muhammad Alixon (Ma'dalixon) – Umarxonning o'g'li. 1810-yilda tug'ilgan. 1822-yildan Qo'qon xoni. Uning xonlik davrida sug'orish ishlari yaxshilangan, xonlik hududi kengaytirilgan. 1842-yilda Buxoro amiri Nasrullo tomonidan qatl ettirilgan. Yuqorida qayd etilgan "Xitoy safari" nomli asar aynan unga bag'ishlangan.

Jahon otinga bir kun, dasturxon boshida anorni ko'rsatib, shu to'g'risida biror narsa aytishni iltimos qilishadi. O'sha zahotiyoyq Jahon otin anor to'g'risida she'r yozadi. Badehago'ylik yo'li bilan yozilgan bu she'r anorni juda go'zal va san'atkorona tasvirlaydi:

*Bu na gumbazdir, eshigi tuynugidan yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzila aylabdir makon,
Sindirib gumbazni qizlar holida olsam xabar:
Yuzlariga parda tortig'liq tururlar bag'ri qon.*

Cho'lpon bu maqolasi bilan ayollarga murojaat qilmoqchi ekanligi ko'rinib turibdi. Nimaga endi u aynan anorga keltirilgan misralarni aytib o'tdi. "Yuzlariga parda tortig'liq tururlar bag'ri qon" deb u o'z zamonasining ayollarini ahvolini aytishga urinmayaptimi!? Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Cho'lpon zamonasining hech bir muammosini nazardan chetda qoldirmaslikka harakat qilgan. Qisqagina bu maqoladan maqsad faqat Uvaysiy to'g'risida ma'limot berish emas, balki o'z davrini jaholatdan qutqarishdir. Ehtimol, o'z davrida ayollarning kamsitilishi unga yoqmagandir. Balki, u Uvaysiy misolida jamiyatda ayollarning ham o'z o'rni borligini ko'rsatishga uringandir!

Cho'lpon xalqning qudratli kuch ekaniga, uning o'z vatani taqdiriga o'zgarish kiritishga ishongan. Cho'lpon yashagan shiddatli davr uning ijodiga ma'rifat-parvarlik, milliy taraqqiyot uchun kurash kabi g'oyalarni kiritdi. Va bu kurashda xoh ayol, xoh erkak bo'lsin birdek harakat qilishi kerak deb hisoblagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баҳодир Карим. Янгилаштирилган соғинчи. – Toshkent, Adabiyot jam'iasasi, 2004.
2. Karimov N. Cho'lpon. – Toshkent, Fan, 1991.
3. Cho'lpon A. Adabiyot naduri. – Toshkent, Cho'lpon, 1994.

Абдурахмонова Феруза. "Ёр-ёр" атамаси ҳақида	324
Баходир Жовлиев. Бадий асарда мифологик талқин масаласи	329
Жабборов Фаррух. "Малика айёр" дostonи номининг ёзилишига уч хил ёндашув	335
Жуманов Элбек. Ўзбек халқ эртақларидаги урталиқ формулалар	338
Рахмонов Зикрий, Рахмонова Дилбар. Фольклор как составляющая часть национальной культуры	344
Сабирова Насиба. Хоразм халфачилиги тараққиётида шоира – дostonчи хоним халфанинг ўрни	347
Шералиева Сайёра. Задачи фольклористики. Историческое развитие фольклора народов центральной азии. Сущность дастанов	352
Юлчураев Орзубой. Меҳнат қўшиқлари таснифи баходир саримсоқов талқинида	358

VI БОБ

АДАБИЙ АЛОҚАЛАР ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИК

Асадов Мақсуд. Маънавий камолот йўли	364
Астанова Гулнора. "Минг бир кеча" да шарқ аёли талқини	373
Ҳилола Аҳмедова. Инглиз адібаси ижодининг талқинлари	375
Рўзиев Мухтор. Ханс Шнир – "масхарабознинг қарашлари" романининг бош қаҳрамони	378
Бегимкулова Шахноза, Холикова Мукаддас. Фарука Гавҳарий – садоқатли аёл образи	380
Nosirova Buviniso. Dunyo adabiyotida ota obrazı	385
Тўхсанов Қаҳрамон, Бабаев Отабек. Таржимада тил бойлигидан фойдаланиш	388
Teshayeva Gulnoza. Abdulla qodiriy va turkiy xalqlar romanchiligi	393
Мизрабова Жерен. Офелия нутқидаги бадий воситаларнинг ўзбек таржималарида қайта яратилиши	397
Norova Rahima. Ingliz adabiy ertakchiligi	401
Azimov Ulug'bek. "Masnaviyi ma'naviy" da oddiy folklorizm	403
O'rinova Maftuna. "Tog'lar qulayotgan zamon(abadiy qalliq)" romanida umuminsoniy fojialar va badiiy talqin	407
Qudratova Muborak. Cho'lpon "Shohnoma" ning turkcha tarjimasi va "Uvaysiy" maqolalari	411

VII БОБ

ТИЛШУНОСЛИК

Найимов Сади. Антропоонимы Бухарской области	417
Дуйсабаева Дилбар. Проблемы развития лингвокультурологической компетенции при изучении родного языка и литературы	420
Набиева Ш. Она тили дарсликларининг шаклланиши	424
Mustaqimova Qunduz, Boltayeva Nodira. Reklama tilida metafora va iboralarning o'rni	427
Носирова Мубина. Теоретические основы изучения концептов в когнитивной лингвистике	431
Элмуродова Ф. Хорижий тилларни ўқитиш ва маданий тадбирлар орқали маданиятлараро мулоқот кўникмаларини шакллантириш	436
Холматова Шохиста. Аксиологическая значимость пословиц, характеризующих семейные отношения	440
Sobirova Dilnoza. Tibbiy reklamalarda uslubiy figuralar	445
Aminova AMIRA. Lingvokulturologik konseptlar xususida	448
Sharipova Maftuna. "Qo'y" limgi asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarida metafora	453
Ашурова Нодира. От ЛМГИ асосида шаклланган ўзбек халқ мақолларининг прагматик хусусиятлари	458